



PREZI DASTURINING O'ZBEK TILINI O'RGATISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Komilova Z.X

Farg'ona Davlat universiteti

xumor851@mail.ru

Esonboyeva Durdona

FarDU talabasi

Annotatsiya- ushbu ishda Prezi dasturining o'zbek tilini o'rgatishdagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Prezi dasturi yordamida darslarni yanada qiziqarli va tushunarli tarzda o'tish mumkin. Dastur orqali mavzularni rangli, haraktli va ko'rgazmali shaklda ko'rsatish oquvchilarning e'tiborini tortadi. O'zbek tili darslarida Prezi dasturidan foydalanish so'z boyligini oshirishga, matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga rivojlantirishga va darsni samarali o'tkazishga yordam beradi. Shu sababli, Prezi dasturi o'zbek tilini o'rganishda zamonaviy va foydali vosita hisoblanadi.

Аннотация - в данной работе рассматривается роль и значение программы Prezi в обучении узбекскому языку. С помощью программы Prezi уроки можно проводить более интересно и понятно. Красочная, динамичная и наглядная подача тем в программе привлекает внимание учащихся. Использование программы Prezi на уроках узбекского языка способствует расширению словарного запаса, развитию навыков работы с текстом и эффективному проведению уроков. Таким образом, программа Prezi является современным и полезным инструментом в изучении узбекского языка.

Abstract - this work discusses the role and importance of the Prezi program in teaching the Uzbek language. With the help of the Prezi program, lessons can be conducted in a more interesting and understandable way. The presentation of topics through the program in a colorful, dynamic and visual form attracts the attention of students. Using the Prezi program in Uzbek language lessons helps to increase vocabulary, develop skills in working with text, and conduct lessons effectively. Therefore, the Prezi program is a modern and useful tool in learning the Uzbek language.

Kalit so'zlar: Prezi dasturi, o'zbektili, ta'lim, interaktiv o'qitish, texnologiya, ijodkorlik.

Ключевые слова: программа Prezi, узбекский язык, образование, интерактивное обучение, технологии, креативность.

Keywords: Prezi program, Uzbek language, education, interactive learning, technology, creativity.



Bugungi jadal rivojlanib borayotgan zamonga kelib, texnologiyalardan foydalanish ta'lim sohasini va o'qitish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, bugungi kun uchun interaktiv taqdimotlar yordamida darslarni o'tish oquvchilarning, ya'ni bizning bilim olishga bo'lgan qiziqishimizni oshiradi. Shunday dasturlardan biri – Prezi dasturi hisoblanadi, u o'zbek tilini o'rganishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Asosiy qism. Prezi dasturi 2009-yilda Zui Labs kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, juda ham qisqa vaqt ichida global miqyosda mashhur bo'ldi. Prezining asosiy g'oyasi an'anaviy taqdimotlardan farqli o'laroq, chiziqli bo'lmagan tuzilmani joriy qilishdan iborat edi. Prezi dasturi –bu onlayn taqdimot tayyorlash uchun mo'ljallangan zamonavuy platforma. Unda matn, rasm, video va animatsiyalarni birlashtirish orqali mavzuni jonli tarzda ifodalash mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, Prezi dasturi 2020-yilda 60- milliondan ortiq foydalanuvchiga ega bo'lib bir milliarddan ortiq taqdimot yaratilgani haqida xabarlar bor. Buning natijasida esa, Prezi o'z platformasiga yangi funksiyalar qo'shib taqdimot yaratish jarayonini yanada qulay qilishni maqsad qilgan. Hozirgi kunda biz mukammal variantidan foydalanamiz

O'zbek tili fanini o'qitishda Prezi dasturining o'rni va ahamiyati.

Yangi mavzularni o'rganishda: grammatik qoidalarni imlo va fonetika mavzularini visual shaklda tushintirish orqali o'quvchilarga oson yetkazishdir. Bundan tashqari, Prezi dasturi asar yoki maqola tahlilini bosqichma-bosqich ko'rsatish darsini yanada tushunarli qiladi. Yana talabalar o'zlari Prezi taqdimotlarni yaratib mavzuni chuqur o'zlashtiradilar va ijodkorlik ko'nikmasini rivojlantiradi. Prezi dasturining afzalliklaridan biri shundaki, u ta'lim jarayonini interaktiv hamda ko'rgazmali qiladi. Shunda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot kuchayadi darsda faol ishtirok etishi ta'minlanadi. Bundan tashqari, talabani mavzuni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Fikr va reja tarmog'ini qurishga imkon beradi. Bu o'zbek tilidagi murakkab mavzularni tushunish va ularning o'zaro bog'liqligini ko'rishga yordam beradi. Prezi dasturi ko'pincha geografiya, matematika kabi turli fanlarni o'qitishda samarali vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari bu dastur Power Point kabi an'anaviy dasturlardan farqli o'laroq, Prezi o'quvchilarning diqqatini bir joyga jamlashga va ma'lumotlarni chindan ham tushunib olishlariga yordam beradi.

Prezi dasturidan foydalanish yo'riqnomasi.

Prezi dasturidan foydalanish uchun avvalo, Prezi.com saytiga tashrif buyurib ro'yxatdan o'tiladi va tizimga kiriladi. Kirganimizdan so'ng ekranning o'ng burchagidagi "Create New Presentation" tugmasini bosamiz. Prezi bizga turli xil shablonlar taqdim etadi. Biz kerakli shablonni tanlab taqdimot yaratishimiz mumkin. Tanlangan shablon orqali taqdimotning umumiy dizayni avtomatik tarzda shakllanadi. Biz kerakli elementlarni o'zgartirishimiz yoki yangi dizayn yaratishimiz



mumkin. Bundan tashqari, taqdimotga rasm, video, grafiklar qo'shish uchun menyudagi "Insert" tugmasi bosiladi. Bu yerda kerakli shakldagi fayllarni yuklab olish mumkin. Taqimot yaratib bo'lingandan keyin uni saqlash uchun yuqori burchakdagi "Save" tugmasini bosamiz. Taqdimotni boshqalarga ulashishimiz uchun "Share" tugmasidan foydalanamiz. Bu orqali taqdimotni havola yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali ulashishimiz mumkin.

Xulosa qilib, shuni aytishimiz mumkinki, Prezi dasturidan foydalanish o'zbek tili darslarini zamonaviy va samarali tarzda tashkil etish imkonini beradi. U o'qituvchiga mavzuni qiziqarli tushintirishga o'quvchilarga esa darsni osonroq o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, dastur o'quvchilarning ijodkorligini va savodxonligini oshiradi. Shu sababli, o'zbek tili o'qituvchilari dars jarayonida Prezi dasturidan keng foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mengaliyeva. M. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda tilning o'zgarishi.
2. GRAHAM. S. (2019). "Innovations in Education. Remote teaching". ISBN: 978-9974-8700-0-0. British Council, p. 164.
3. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 488 b.
4. Ta'lim muhitining transformatsiyasi: zamonaviy o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. Toshkent 2025-yil 16-aprel, 22-23-betlar.
5. Tojiboyev, I., & Karimova, N. (2022). Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning metodik asoslari. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*, 4(3), 87–95.
6. Qodirova, M. (2021). O'zbekistonda raqamli ta'limni joriy etishning tashkiliy-pedagogik asoslari. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 2(1), 56–63.
7. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023). Some approaches to teaching programming languages in professional educational institutions. *Education and science in the XXI century*. 2 (38).
8. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023) The role of information technologies in teaching technical sciences in professional educational institutions. *Scientific and practical journal "Technique"*. Issue No.1.
9. Komilova, Z. Kh. (2023). The role and importance of information technology science in today's society. *Education and innovative research*. Bukhara State University, 2(2), 234-237.
10. Komilova Z. Kh., Nazirjonova. F. S. The role of new information technologies in education. *Экономика и социум*. 2021, № 4-1 (83), -С.167-170.





11. Z. X. Komilova. Axborot texnologiyalari fanining hozirgi jamiyatdagi oʻrni va ahamiyati //Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Buxoro davlat universiteti. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 234-237.

12.Z. X. Komilova & F. S. Nazirjonova. (2020). The value and role of interactive methods in the development of information technology in primary school pupil. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal)*. ISSN, 2249-7137.

